

OILAVIY NIZOLAR HUQUQIY TAHLILI

Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna

NamDU yuridik fakulteti katta o'qituvchisi

Ismoilova Muxtasar Mo'ydinovna

Namangan Davlat Universiteti Yuridik fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oila tushunchasi, asosiy xususiyatlari, oilaning turlari, mazmun va mohiyati, oilaning jamiyat hayotidagi o'rni, oilalarni o'rganishda yaxlit bir tizim sifatidagi qarashlar o'rganilib, tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Oila kodeksi, oila tushunchasi, oilaning funksional xususiyatlari, oila turlari, oila energetikasi, oila tizimi, oilaning chegarasi va hududi.

Annotatsiya: В данной статье изучаются и анализируются понятие семьи, ее основные характеристики, виды семьи, ее содержание и сущность, место семьи в жизни общества, взгляды как целостная система в изучении семьи.

Ключевые слова: семейный кодекс, понятие семьи, функциональные характеристики семьи, типы семьи, энергия семьи, семейная система, граница и территория семьи

Abstract: In this article, the concept of family, its main features, types, meaning and importance of family, the role of family in the social life, views as a whole system in the study of families are investigated and analyzed.

Key words: family code, concept of family, functional characteristics of family, types of family, family energy, family system, boundary and territory of family.

“Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir, hamda jamiyat va davlat muxofzasida bo'lish huquqiga ega”, deyilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida[1]. 1998 yila “Oila yili”da “Oila kodeksining” qabul qilingan va bu hujjat “Oila” so'zining “Nikoh” so'ziga nisbatan kengroq ma'no anglatishi hisobga olinib, amalda qo'llanib kelingan “Oila va nikoh” kodeksi yangilanngan va to'ldirilingan. “Oila” kodeksi 238-moddadan tarkib topgan sakkiz bo'limdan iborat[2]. “Umumiy qoidalar” deb ataluvchi bo'limning sakkiz moddasi “oilaviy munosabatlarda mahalliy urf-odat va an'analarining qo'llanishi” haqida bo'lib, jumladan, bu masala shunday ifodalangan: “Qonun hujjatlarida oilaviy munosabatlarni tartibga solishga oid tegishli normalar bo'lмаган тақдирда, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari tamoyillariga zid bo'lмаган mahalliy urf – odат va an'analar qo'llaniladi”. Bunda o'zbek xalqida kelin - kuyovga eskicha nikoh o'qitish, shuningdek Respublikamizda yashovchi boshqa xalqlar, jumladan, ruslarda cherkovda nikoh o'qitish, turklarda esa nikoh to'yidan keyin hurmat belgisi sifatida kelin-kuyovni ma'lum muddat davomida oila a'zolari bilan gaplashmay yurishlari singari an'anaviy udumlar ko'zda tutilgan. “Oila ham ijtimoiy institut, ham kichik guruh ekanligidan kelib chiqib, unga quyidagicha ta'rif berish mumkin: oila - bu uyushgan ijtimoiy guruh bo'lib, uning a'zolari umumiy hayot, nikoh yoki

qarindoshlik munosabatlaribil, shuningdek, jamiyatning jismoniy ehtiyojlari tufayli ma'naviy javobgarlik bilan bog'lanadi".

Oilalar tarixning ilk birligi sifatida jamiyat rivoji uchun turtki bergan. Shu sababli xalqaro normalar ham, milliy qonunchilik ham oilani jamiyatni kichik hujayrasi deb tan olgan.

Dastlabki kishilik jamiyati oilalar axloq qoidalari asosida shakllanishini, oilaning ichki yozilmagan qonunlari borliginini, oiladagi barcha munosabatlar kengashib tartibga solinganligini ko'rsatadi. Barcha tarixiy manbalar oilaviy munosabatlarni oliy qadriyat sifatida belgilaydi. Oilaviy munosabatlar barcha munosabatlardan ham ulug'vor bo'lgan.

Lekin insoniyat ayrim toifalari tomonidan bu ulug'vorlik va qadriyatlarning hurmat qilinmasligi, nizolarni shakllantirgan. Axloq normalariga amal qilmaslik oilaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solishni taqazo etdi.

Lekin insoniyat huquq normalari bilan tartibga solish masalasoga ham bo'y sunmayapti. Oilaviy munosabatlarda nizolar bisyor, ularning kelib chiqish sabablari turli sohalarda turlichadir

Afsuski, zamонавијатда oilaviy nizolar dolzarb mavzudir. Har qanday oila o'z hayoti davomida muommoli vaziyatlarga duch keladi. Ularni hal qilish qarama-qarshi individual ehtiyojlar, motivlar, manfaatlar, sharoitida amalga oshiriladi.

Oilaviy nizolar quyidagilarga bo'linadi: er xotinlar, ota onalar, bolalar, er xotinlarning ota onasi, bobo buvilar, va nevaralar. Oilaviy munosabatlarda asosiy rolni nikohdagi nizolar egallaydi. Nikohdagi nizolarning paydo bo'lishiga tashqi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ko'plab oilalarning moliyaviy ahvolining yomonlashuvi, turmush o'rtog'laridan birini yoki ikkalasining ortiqcha ish bilan bandligi, ularning bittasi normal ishlamasligi, ularning birini uyda uzoq vaqt yo'qligi, bolalarni bolalar muassasalarga yoki boshqa muassasalarga joylashtirish imkonni yo'qligi va h.k.

Kundalik hayotda eng ko'p uchraydigan muommolardan biri ota onalar va bolalar o'rtasidagi nizolar ham bo'lishi mumkin. Bola ko'pincha ota onasidan birining yo'qligi haqida tengdoshlarining bosimini boshidan kechiradi. Bu uning, neyroskopik holatiga ta'sir qiladi. Bu esa bolada deviant xulq atvorga ega bo'lgan o'smirlar soni ortib bormoqda, jinoyatchilik ko'paymoda. Oiladagi janjallarni hal qilishda muommolardan qochmaslik, balki ularni hal qilish kerak. G'alaba qozonish yoki himoyalanish uchun emas balki hal qilish maqsadi bilan konstruktiv va xotirjam muloqot qilish lozim. Bahsga uchinchi tomonlarni jalb qilish tavsiya etilmaydi, chunki ular majoronimg yanada kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ayni kunlarda oilaviy munosabatlarning vujudga kelishini bir necha turlarga bo'linmoqda.

1. Oilaviy nizolarni vujudga kelishiga "ommaviy madaniyat" ning ta'siri;
2. Oilaviy munosabatlarda sunggi asrdagi axborot texnikasi, hususan, mobil telefonlardagi bog'lanish orqali hiyonatlar;
3. Oilaviy munosabatlarda maishiy masalarning ta'siri
4. Huquq normalaridagi nigilizm.

Bu muammolarni davom ettirib tahlil etish, uning ichki bo'lishlarini ham keltirib o'tish mumkin.

Oilaviy ajralishlarni oldini olish va nizolarni bartaraf etish uchun davlat siyosatda va jamiyatni rivojlantirish strategik dasturlarida, amaliy faoliyatida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa shuki, oila jamiyatning bir bo'g'ini ekanligi sababli, oilalarni har tomonlama o'rghanish, ulardag'i turli xildagi muammolarni hal qilish, yechim qidirish, to'g'ri rejali ish yuritish, qanday muommoli oilalarrni bu muhitdan olib chiqish va jamiyatga qo'shib yuborish chora tadbirlarini o'ylab chiqish lozim.

Mashhur faylasuf V.Gyugo aytganidek, "oila jamiyatning duru gavharidir". Shuningdek, "Oila tabiatning shox asarlaridan biridir". Xuddi shox asar hisoblangan oilani o'rghanish, ilmiy jihatdan tadqiq etib borish bugungi kunning ham eng dolzarb masalalaridan bo'lib, hozirgi davrda mustaqil O'zbekistonda bu borada juda katta ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar olib borilmoqda. "Oila" haqida gapirar ekanmiz, avvalom bor, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urfodatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak avlodlar qanday inson bo'lib yetishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini deb bilamiz. Har bir oilaning kelajagi va istiqboli, uning mustahkamligiga, sog'lom turmush tarziga bog'liqdir. Bu o'z navbatida xalqning, jamiyatning istiqbolini belgilaydi. Shu tufayli oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslari mamlakat, jamiyat manfaati yo'lida amalga oshiriladigan eng muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi – Toshkent: Adolat, 2024.

2.O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2016.

3. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН-III

РЕНЕСАНСИДА ХОТИН-ҚИЗЛАР ИЖТИМОЙ ҲИМОЯСИ PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS: a collection scientific works of the International scientific conference (15 May, 2022) - Copenhagen:2022. ISSUE 13 – 226 p. 94-99

4. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. OILA MUQADDASLIGI HUQUQIY ASOSLARI. PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI. 7 – ТОМ 2 – SON / 2024 - YIL / 15 – FEVRAL. 203-207 <http://www.bestpublication.org/>

5. Сайдисаков Саидхорроп Сайдакрамович. ЭМОТИВНОЕ ЗНАЧЕНИЕ И КАТЕГОРИЯ ЭМОТИВНОСТИ. 7 – ТОМ 2 – SON / 2024 - YIL / 15 – FEVRAL.<http://www.bestpublication.org/>. 198-202

6. Chuboyeva Ozodaxon "New Uzbekistan: Administrative Management Reform" Journal of Pedagogical Inventions and Practices ISSN NO: 2770-2367. <https://zienjournals.com>

7. Kuvonbekovna C. O. OILA MUQADDASLIGI HUQUQIY ASOSLARI //PEDAGOG. – 2024. – Т. 7. – №. 2. – С. 194-198.

8. Технологии социальной работы с семьей и детьми. Учебное пособие.